




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



VOLUME | 4 ISSUE | 8 | JANUARY | 2026



JCWS

O‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARNI YURITISHNING ASOSIY MEZONLARI

¹ *Abdulxalilova Saboxat*, ² *Abdulxalilova Surayyo*

¹ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti,

² Toshkent amaliy fanlar universiteti “Axborot texnologiyalari” fakulteti
e-mail: abdulxalilovas@gmail.com



ANNOTATION:

Ushbu maqolada global muammolarni bartaraf etishni ko‘zlab ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyot tamoyillarini mamlakatimizda joriy qilish natijasida sanoat tarmoqlarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga hamda ekologiyaga ta‘sirini, shuning natijasida inson hayoti farovonlik darajasiga ta‘siri statistik usullardan foydalanib tahlil qilingan. O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i iqtisodiyotning asosiy lokomotiviga aylangan bo‘lsa-da, insonlar hayoti va uning farovonlik darajasiga yillar davomida jiddiy salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda va biz bu maqolada ularning sabab va oqibatlari, ularni bartaraf etish bo‘yicha ayrim ilmiy fikr va mulohazalarimizni keltirib o‘tamiz.

Accepted Date:

January 05, 2026,

Published Date:

January 15, 2026

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

KEYWORDS:

Yashil iqtisodiyot, Yashil iqtisodiyot tamoyillari, Yashil sanoat, yashil kimyo, makroiqtisodiyot, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, iqtisodiyot tarmoqlari, YaIM, iqtisodiy-statistik tahlil usullari, statistik guruhlash, tahlil va sintez, korrelatsion-regression tahlil.

KIRISH

Global muammolar dunyoni kelajagiga jiddiy rahna solayotgan bugungi kunda, barcha mamlakatlar birgalikda tabiatni, umuman, yer sayyorasini saqlab qolish borasida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqdalar. Ekologik muammolarning eng asosiy sabablaridan bo'lgan sanoat, dunyo iqtisodiyotining asosiy qismi va usiz iqtisodiy tizimni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bilan birga sanoat hozirgi global muammolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri hamdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha faoliyatlarning asosiy maqsadi foyda yoki ma'lum bir moddiy va moliyaviy manfaat hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy faoliyat yakuni doim ham ekologiyaga ta'sirsiz yuzaga kelmaydi. Urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasining ortishi mamlakatda atrof muhitga salbiy ta'sirlar, xususan, havo, suv, tuproq unumdorligining pasayishi kabi holatlar barcha mamlakatlarda kengayib borishi natijasida globallashib bormoqda va bu butun insoniyatning kelajagini shubha ostida qoldirishi oydinlashib bormoqda.

Bu kabi global muammolar mamlakatimizga ham salbiy ta'sirlari juda jiddiy havotirlar bilan sodir bo'layotganligi sababli hukumat darajasida bu muammolarga munosabat bildirilmoqda. Ya'ni, iqtisodiy faoliyat natijasida ekologiyaga ma'lum salbiy ta'sirlar, xususan, nafaqat sanoat bilan, balki xizmatlar natijasida ham turli zarar keltiriladi. bozoridagi global o'zgarishlar hamda milliy iqtisodiyotda kuzatilayotgan transformatsion o'zgarishlar, agrar tarmoq va sanoatning ishlab chiqarish, oziq-ovqat hamda tog'-kon sohalarida xom ashyo va tayyor mahsulotlar hajmida sodir bo'lsiyotgan turli silkinishlar kimyo sanoatini tadqiq etishda olib qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi, xususan, o'sib borayotgan avtomobilsozlik sanoati plastmassa, kauchuk-texnik mahsulotlar,

sintetik kauchuk ishlab chiqarishga bo'lgan talabni oshiradi; elektronika va elektrotexnika ishlab chiqarishning o'sishi mobil telefonlar, planshetlar, kompyuterlar, monitorlar, shuningdek televizorlar, uy-ro'zg'or buyumlari, konditsionerlar) limer mahsulotlariga talabning keskin kengayishiga olib keladi; to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining o'sishi, aralash matolar ishlab chiqarishning kengayishi kimyoviy tolalarga bo'lgan talabni keskin oshiradi; uy-joy qurilishining kengayishi tufayli plastik mahsulotlar, kauchuk mahsulotlar, polistiroлга talab oshadi, aholining farovonligi va ijtimoiy tuzilishining o'zgarishi kosmetika mahsulotlari, yuvish vositalari va boshqa maishiy kimyo mahsulotlariga talabning jadal o'sishini ta'minlamoqda.

Ekologik muammolar, xususan, havoning ifloslanishi va global isish, insoniyat va boshqa jonzoqlar uchun o'ta xavfli oqibatlariga olib kelmoqda. Havodagi uglerod gazining ortishi qutbiy muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, suv resurslarining kamayishi oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bioturli turlarning yo'qolishi esa ektotizimlarning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ekologik muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarur. Energiya manbalarini qayta tiklash va chiqindilarni qayta ishlash kabi amaliy tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2024 yildagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81 sonli farmonida quyidagi fikrlar keltirilgan:

"So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik

vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriy amal qilmoqda. Shu bilan birga, respublikada hudud rahbarlari, ekologiya va atrof-muhitni hamda huquqni muhofaza qilish organlarining e'tiborsizligi natijasida sohada o'tgan davrda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan, ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo'lmas darajada zarar yetkazilgan".

Sanoat tarmog'i barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro miqyosda sanoat sektori atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror ishlab chiqarish amaliyotlarini rivojlantirish orqali global barqarorlikni ta'minlaydi. Sanoat tarmog'i xalqaro iqtisodiy siyosat va strategiyalarda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlar o'rtasida sanoat siyosatlari va strategik aloqalar global iqtisodiy muvozanatni saqlash va global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini boshqarishda yordam beradi. Xalqaro sanoat aloqalari savdo va investitsiya oqimlarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat mahsulotlari va texnologiyalarning global savdosi, hamda xalqaro investitsiyalar sanoat tarmog'ining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Global sanoat zanjirlari va ishlab chiqarish tarmoqlari sanoat mahsulotlarining global miqyosda ishlab chiqarilishi va taqsimlanishini tashkil etadi. Bu global iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va sanoat mahsulotlarining xususiyatlarini yaxshilaydi. Sanoat tarmog'ining xalqaro

darajadagi ahamiyati global iqtisodiy o'sish, tijorat aloqalari, texnologiyalar va innovatsiyalar transferi, ish o'rinlari yaratish, resurslarni boshqarish, global barqarorlik va rivojlanish kabi sohalarda namoyon bo'ladi. Sanoat sektori xalqaro iqtisodiy siyosat va strategiyalarda muhim rol o'ynaydi va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantiradi.

Sanoat tarmog'i xomashyodan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Xomashyoni qayta ishlash orqali yuqori texnologik mahsulotlar yaratiladi va bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Sanoat tarmog'i mehnat resurslarini keng jalb qiladi. Yirik sanoat korxonalari va zavodlar o'z ichida minglab ish o'rinlarini yaratadi. Bu ish o'rinlari malakali va malakasiz ishchilarga imkoniyatlar yaratadi, shu orqali ishsizlik darajasini kamaytiradi.

Sanoat sektori texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishda asosiy ro'l o'ynaydi. Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida keng qo'llaniladi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Sanoat tarmog'i mamlakatning eksport qobiliyatini oshiradi. Rivojlangan sanoat tarmoqlari yuqori sifatli mahsulotlarni eksport qilib, tashqi bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi va valyuta tushumlarini oshiradi.

Sanoat rivojlanishi yangi infratuzilmalar –yo'llar, elektr tarmoqlari, logistika markazlari qurilishi va rivojlanishini talab qiladi. Bu o'z navbatida xizmat ko'rsatish sohalarining ham rivojlanishiga turtki beradi. Sanoat korxonalari odatda shaharlarda joylashgan bo'lib, ularning atrofida sanoat shaharlar va iqtisodiy zonalar shakllanadi. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi, ichki migratsiyani rag'batlantiradi va hududlar

o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi. Sanoat sektori qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va savdo kabi boshqa sohalarga ham turtki beradi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlash orqali sanoat mahsulotiga aylanadi yoki xizmat ko'rsatish sohasi sanoat uchun logistika va transport xizmatlari ko'rsatadi.

Rivojlangan sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiyotini turli global iqtisodiy tebranishlardan himoya qiladi. Xomashyo resurslariga bog'liq bo'lmagan iqtisodiyot ko'proq barqaror va mustahkam bo'ladi.

Sanoat tarmog'i har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. U yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, ish o'rinlari ta'minlash, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiyotning turli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoatning rivojlanishi hududiy rivojlanishga, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishiga va mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi.

Sanoat sektori mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. O'zbekiston sanoati iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy sektorlardan biridir. Sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi sanoat korxonalarini tashkil etish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Sanoat sektori mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. O'zbekiston sanoati iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy sektorlardan biridir. Sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi sanoat korxonalarini tashkil etish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Sanoat tarmog'i ko'plab ish o'rinlarini yaratadi. O'zbekiston sanoat korxonalarini va zavodlari yangi ish o'rinlarini ochadi, bu esa ishsizlikni

kamaytirishga va mehnat bozorida raqobatni oshirishga yordam beradi. Sanoat sektori texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, Sanoat sektori ijtimoiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatadi. Yangi ish o'rinlari va yaxshilangan infratuzilma yashash sharoitlarini yaxshilaydi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatning ta'siri ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi, jumladan iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, texnologik rivojlanish, eksport salohiyatini oshirish, hududiy rivojlanish, resurslarni samarali ishlatish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma va xizmat ko'rsatish rivoji va ijtimoiy rivojlanish. Sanoat tarmog'i O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya-bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

Hayotimizning barcha sohalariga elektrotexnika qurilmalarining kirib kelishi natijasida turli metallar va yarim o'tkazgichlarga bo'lgan talab ortadi. Shuni inobatga olgan holda, Elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5,0 mlrd. dollar investitsiya jalb qilishni rivojlantirish belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

AQSh kimyo iqtisodiyoti umumiy iqtisodiyotning katta qismini tashkil etadi, ammo uning muhim xususiyati iqtisodiyotning boshqa ko'plab tarmoqlariga, jumladan sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va boshqalarga ta'siridir. Qo'shma Shtatlardagi kimyo iqtisodiyotining ma'lum jihatlariga tayanadigan barcha tarmoqlar jami 5,2 trillion dollarni tashkil etadi. Fundamental tadqiqotlar AQSH kimyo iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u monumental o'zgarishlar bilan bir qatorda qo'shimcha bosqichlarni ham ta'minlaydi. Milliy fanlar, muhandislik va tibbiyot akademiyalari tomonidan kimyoviy bilimlar, mahsulotlar va jarayonlarning tarqalishi tufayli kimyo iqtisodiyotdagi bosqichma-bosqich yutuqlar umumiy iqtisodiyotga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Kimyo sanoati yalpi ichki mahsulotga (YaIM), bandlikka va milliy raqobatbardoshlikka qo'shgan hissasi orqali iqtisodiyotga sezilarli darajada bevosita ta'sir ko'rsatadi⁶.

“O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat sanoatlashtirish siyosati faqat sanoatning an'anaviy tarmoqlarini taraqqiy ettirishdan ko'ra, ilmiy sig'imi va qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan, zamonaviy va ilg'or texnologik tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ilgargisidan farq qiladi. Bu masalaning bir tomoni. Boshqa tomondan, sanoat ishlab chiqarishining texnik- texnologik tuzilishi faqat va faqat innovatsion va kretiv yondashuvlarga tayanadi, sohaga ilmiy va yuqori texnologiyalarni uzluksiz joriy etmasdan,

ilmiy-tadqiqot va tajri-ba- konstruktorlik ishlanmalarisiz ishlab chiqarish samaradorligini va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishni tasavvur etib bo'lmaydi. Bu yondashuvlar bugun sanoat sohasini rivojlantirishga qaratilgan sa'y- harakatlarda o'z aksini topmoqda”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoat tarmog'ining iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga ta'sirini statistik tahlil qilish va statistik ma'lumotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida olib borilgan tadqiqot jarayonida statistik jadval va grafiklar, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraktsiyalash, tahlil va sintez, dinamik qatorlar va iqtisodiy indekslar kabi turli statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqot ishimizning obyekti bo'lib, mamlakatimiz makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sanoat tarmog'ining ta'sir darajasiga statistik baho berish, ularning faoliyati samaradorligini ifodalovchi yalpi statistik ko'rsatkichlar tizimi va ularni xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy yo'nalishlari tanlangan. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston sanoat tarmog'ining milliy iqtisodiyotga ta'sirini statistik usullarda tahlil qilishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O'zbekiston Respublikasining YaIM tarkibiy ko'rsatkichlari quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Bunda 2019-2023 yillar davomida qishloq xo'jaligi, qurilish, tog'-kon sanoati, ishlab chiqarish sanoati, axborot va aloqa, moliyaviy faoliyat, tashish va saqlash kabi tarmoqlar ko'rsatkichlari o'rganiladi (1-jadval).

O'zbekiston Respublikasining YaIM asosiy tarkibi, mlrd. so'mda

YaIM asosiy ko'rsatkichlari	2019	2020	2021	2022	2023
Qishloq xo'jaligi	129885,0	150494,0	181788,0	208809,0	245223,0
O'tgan. yilga nisb., %	-	115,9	120,8	114,9	117,4
Qurilish	45202,0	51927,4	63608,5	73209,4	84944,3
O'tgan. yilga nisb., %	-	114,9	122,5	115,1	116,0
Tog`-kon sanoati	30865,6	22161,9	28649,4	33396,2	34975,8
O'tgan. yilga nisb., %	-	71,8	129,3	116,6	104,7
Ishlab chiqarish sanoati	104350,0	127781,0	159764,0	189872,0	225024,0
O'tgan. yilga nisb., %	-	122,5	125,0	118,8	118,5
Axborot va aloqa	8033,0	10110,3	13020,4	17955,9	23552,7
O'tgan. yilga nisb., %	-	125,9	128,8	137,9	131,2
Moliyaviy faoliyati	13860,9	22011,1	20157,4	33778,0	44111,1
O'tgan. yilga nisb., %	-	158,8	91,6	167,6	130,6
Tashish va saqlash	32103,6	31088,0	39045,3	47055,1	60551,2

Yuqoridagi jadvalda qishloq xo'jaligi sohasida-yillar davomida doimiy o'sish kuzatilmoqda. 2019-yildagi 129 885,0,0 mlrd. so'mdan 2023-yilda 245 223,0 mlrd. so'mga yetgan, bu sezilarli o'sishdir.

Qurilishda juda keskin o'sish kuzatilmoqda. 2019-yildagi 45 202,0 mlrd. so'mdan 2023-yilda 849 443,0 mlrd. so'mga oshgan, ya'ni bu sektor juda katta miqdorda kengaygan. Tog'-kon sanoatida 2020-yilda pasayish kuzatilgan (308 656,0 mlrd. so'mdan 221 619,0 mlrd. so'mga), ammo keyinchalik bu ko'rsatkich yana ko'tarilgan va 2023-yilda 349 758,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ishlab chiqarish sanoati barqaror o'sib bormoqda, 2019-yildagi 104 350,0 mlrd. so'mdan 2023-yilda 225 024,0 mlrd. so'mga yetgan. Axborot va aloqa sektori eng dinamik o'sishni ko'rsatmoqda. 2019-yildagi 8 033,0 mlrd. so'mdan 2023-yilda 235 527,0 mlrd. so'mga oshgan, bu sektorning rivojlanishi texnologik taraqqiyot bilan bog'liq. Moliyaviy faoliyatda o'zgaruvchanlik mavjud. 2020-yilda ko'rsatkich 220 111,0 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda sezilarli darajada

pasayib, 201 574,0 mlrd. so'mga tushgan. Ammo 2023- yilda bu ko'rsatkich keskin o'sib, 441 111,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Tashish va saqlash sektori ham o'sishda. 2019-yildagi 321 036,0 mlrd. so'mdan 2023-yilda 605 512,0 mlrd. so'mga yetgan.

Umuman olganda, jadvalda O'zbekiston iqtisodiyotining turli sektorlarida umumiy ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda, ayniqsa, qurilish va axborot-alloqa sohalarida sezilarli o'sish mavjud.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi yillar davomida doimiy o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda (1-rasm).

Yuqoridagi rasmda O'zbekiston sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2010 yildan 2023 yilgacha bo'lgan o'sishi kuzatilgan. 2010 yilda sanoat mahsulotlari hajmi 38119 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 706348 mlrd so'mga yetgan. Bu davrdagi o'sish 1851% ga teng bo'lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Bunday sezilarli o'sish iqtisodiy islohotlar, davlat investitsiyalari va xorijiy sarmoyalar

hisobidan amalga oshirilgan. 2013 yildan 2016 yilgacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 706348 mlrd soʻmdan 1118694 mlrd soʻmga yetgan. Eng yuqori oʻsish surʼatlari 2017-2019 yillarda kuzatilgan boʻlsa-da, keyinchalik pandemiya taʼsirida sekinlashish yuz bergan. Shu bilan birga, 2021-2023 yillarda barqaror oʻsish qayta tiklangan. Bunday

rivojlanish iqtisodiyotning diversifikatsiyasini davom ettirish va innovatsiyalarni joriy qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi oʻzgarishlarni tahlil qilishda, avvalo, unda sodir boʻlayotgan mutloq va nisbiy oʻzgarishlarga eʼtibor qaratish kerak boʻladi (2-jadval).

2-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. soʻmda

Yillar	Mahsulot hajmi	Mutloq oʻzgarish		Nisbiy oʻzgarish	
		Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli
2010	38119,0	-	-	-	-
2011	47587,1	9468,1	9468,1	124,8	124,8
2012	57552,5	9965,4	19433,5	120,9	151,0
2013	70634,8	13082,3	32515,8	122,7	185,3
2014	84011,6	13376,8	45892,6	118,9	220,4
2015	97598,2	13586,6	59479,2	116,2	256,0
2016	111869,4	14271,2	73750,4	114,6	293,5
2017	148816,0	36946,6	110697,0	133,0	390,4
2018	235340,7	86524,7	197221,7	158,1	617,4
2019	322535,8	87195,1	284416,8	137,1	846,1
2020	368740,2	46204,4	330621,2	114,3	967,3
2021	456056,1	87315,9	417937,1	123,7	1196,4
2022	553265,0	97208,9	515146,0	121,3	1451,4
2023	658991,7	105726,7	620872,7	119,1	1728,8

Yuqoridagi jadvaldan, 2010-2013-yillarda barqaror oʻsishni kuzatishimiz mumkin. 2010-yilda mahsulot hajmi 381190,0 mlrd. soʻm boʻlgan va 2013-yilga kelib 706348,0 mlrd. soʻmga yetgan. Bu davrda mutloq oʻzgarish 325158 mlrd soʻmni, nisbiy oʻzgarish esa 1853%ni tashkil qilgan.

Yuqori oʻsish davri 2013-2017-yillarga toʻgʻri keladi. 2013-yildan 2017-yilga qadar mahsulot hajmi 706348,0 mlrd. soʻmdan 1488160,0 mlrd. soʻmga koʻtarilgan. Mutloq oʻzgarish 1106970,0 mlrd. soʻmni tashkil qilgan, nisbiy oʻsish esa 3904% boʻlgan. Ayniqsa, 2017 yilda oʻsish surʼati keskin oshgan.

3-jadval.


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, %da

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sanoat, jami	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,3	106,3
Togʻ-kon	117,6	126,5	99,4	78,0	110,8	101,9	99,5
Ishlab chiqarish	104,2	107,9	106,6	107,9	108,3	105,4	107,4

Oziq-ovqat	90,3	98,5	110,9	108,6	104,2	106,0	107,0
Ichimliklar	97,9	111,0	112,7	105,7	118,0	115,7	106,4
To'qimachilik	100,5	107,4	105,3	117,4	119,5	109,9	106,4
Kiyim	110,5	103,3	108,7	107,2	118,7	105,8	112,7
Kimyo	94,0	97,2	102,3	107,6	107,0	98,1	96,7
Farmatsevtika	109,4	103,3	108,5	118,9	144,5	89,9	102,5
Metallurgiya	107,2	102,2	106,7	107,7	108,1	104,4	106,6
Kompyuter	174,5	118,8	142,8	172,0	138,4	85,8	78,1
Elektr uskuna	124,6	139,9	107,5	110,1	93,0	106,0	116,1

Ushbu jadvalda esa jami sanoat mahsuloti hajmi barqaror o'sib, 2020-yildagi pandemiya davrida o'sish deyarli to'xtab qolgan(100,9%). Keyinchalik 2021-2023- yillarda o'sish tiklangan (mos ravishda 105,3%-106,3%). Tog'-kon sanoatida esa 2017-2018-yillarda kuchli o'sishga ega bo'lgan (117,6-126,5%), lekin

2020-yilda 78% gacha tushib ketgan. 2023-yilda esa deyarli o'sish kuzatilmagan (99,5%). Oziq- ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish bo'yicha barqaror o'sishni namoyon etgan, ayniqsa ichimliklar sohasida (2021- yilda 118%, 2022-yilda 115,7%) buni yaqqol kuzatishimiz mumkin.



3-rasm. Sanoat korxonalarining tashkil qilinishi bo'yicha demografik holat, o'tgan yilga nisb., %da

2020-2023-yillar davomida sanoat korxonalarini sonining o'zgarishini tahlil qilishda quyidagi muhim jihatlarni qayd etish mumkin. Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar bo'yicha, 2020-yilda

124,4% o'sish kuzatilgan, bu o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich pandemiyaga qaramay iqtisodiyotdagi barqarorlikni ifodalaydi. 2021-2023-yillarda o'sish

sekinlashgan bo'lsa-da, barqaror darajada saqlanib qolgan. 2021-yilda 118,7%, 2022-yilda 109,3% va 2023-yilda 108,3% bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar sanoat korxonalarining o'sishi davom etayotganini, lekin pandemiya va iqtisodiy sharoitlar ta'sirida o'sish sur'ati pasayganini anglatadi.

Qurilishda esa 9,6% ni tashkil qilgan. Qurilish sektori ham aholi bandligida muhim o'rin tutadi. Bu sohadagi faoliyatlarning rivojlanishi mamlakatdagi infratuzilmaning o'sishi bilan bog'liq. Tog'-kon sanoatida 0,4% bo'lgan. Tog'-kon sanoatidagi bandlik darajasi juda past. Bu soha yuqori texnologiyalar va kam sonli ishchi kuchi bilan ishlashi tufayli aholi bandligiga uncha ta'sir qilmaydi.

Boshqa sektorlarda esa 53,0% ni tashkil qilgan. Eng katta ulush "boshqalar" guruhiga to'g'ri keladi. Bu turli xil xizmat ko'rsatish, savdo, transport va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi, va bu sohalar iqtisodiyotda ko'proq bandlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari O'zbekistonda aholining bandligida yetakchi o'rin tutadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va qurilish sektorlarida ham ahamiyatli bandlik mavjud, bu esa iqtisodiyotning turli tarmoqlariga keng qamrovli taqsimlanganligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotining turli sektorlarida umumiy ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda, ayniqsa, qurilish va axborot-aloqa sohalarida sezilarli o'sish mavjud. mamlakatimizda sanoatning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoatning turli tarmoqlari, xususan, tog'-kon, yengil sanoat, kimyo va oziq-ovqat sanoati kabi yo'nalishlar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlari hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib, sanoatning

yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga oshib borganligini ko'rishimiz mumkin va bu esa mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga olib kelmoqda.

Ayniqsa, texnologik yangilanishlar, modernizatsiya va mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida sanoat mahsulotlari eksporti hajmi ortib bormoqda.

Biroq, sanoatning ayrim tarmoqlarida mavjud infratuzilmaning yetarli emasligi va texnologik asbob-uskunalarining eskirishi kabi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish kelgusida sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va sanoat sohasida innovatsion yechimlardan foydalanish O'zbekistonda sanoatning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston sanoat sektorining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "“O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida” gi PF-158-sonli Farmoni. www.lex.uz rasmiy sayti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29.12.2018 y.

4. E. Shavqiyev. O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. No10-son. 566-571-betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

5. Cefic. (2017). Facts & Figures 2017 of the European Chemical Industry. Cefic: Brussels.

6. Church J., Ware R. Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000. –960 p.

7. Marshall A. Industry and Trade: A Study of Industrial Technique and Business Organization; and of Their Influences on the Conditions of Various Classes and Nations. Harvard University. – Macmillan –2005. –874 p.